

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojida falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 316.7:1

INKLYUZIV JAMIYATNING IJTIMOY FALSAFIY MAZMUNI

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL CONTENT OF AN INCLUSIVE SOCIETY

Salmonov Ahadjon Abdullajonovich 

Fag'ona davlat universiteti Falsafa kafedrası tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv jamiyat tushunchasining mazmuni va bu bo'yicha bir qator ilmiy-nazariy yondashuvlar, xorijiy va mahalliy nashrlarda yoritilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqot doirasida inklyuziv jamiyat haqidagi ilmiy nazariyalar va empirik yondashuvlar asosida ijtimoiy-falsafiy tahlil etish asosiy vazifalardan biri etib belgilab olindi. Bundan tashqari, maqolada inklyuziv jamiyat rivojlanishi borasidagi xorijiy va milliy tajribalar hamda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim modellarini qo'llanishi haqida yoritilgan. Globallashuv sharoitida inklyuziv jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish, empirik tadqiqotlar orqali amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi.

Аннотация

В статье анализируется содержание понятия инклюзивного общества и ряда научно-теоретических подходов к нему на основе информации, опубликованной в зарубежных и отечественных изданиях. В рамках научного исследования одной из основных задач являлось проведение социально-философского анализа инклюзивного общества на основе научных теорий и эмпирических подходов. Кроме того, в статье рассматривается зарубежный и отечественный опыт развития инклюзивного общества и применения моделей инклюзивного образования в Узбекистане. Были поставлены задачи по изучению особенностей и социально-философских аспектов инклюзивного общества в условиях глобализации, а также разработка практических рекомендаций и предложений посредством эмпирического исследования.

Abstract

The article analyzes the content of the concept of an inclusive society and a number of scientific and theoretical approaches to it based on information published in foreign and domestic publications. As part of the scientific research, one of the main tasks was to conduct a socio-philosophical analysis of an inclusive society based on scientific theories and empirical approaches. In addition, the article examines foreign and domestic experience in the development of an inclusive society and the application of inclusive education models in Uzbekistan. The tasks were set to study the features and socio-philosophical aspects of an inclusive society in the context of globalization, as well as the development of practical recommendations and proposals through empirical research.

Kalit so'zlar: inklyuzivlik, inklyuziv jamiyat, inklyuziv modellar, nogironligi bo'lgan shaxslar, empirik tadqiqotlar, inklyuziv ta'lim modellari, maxsus ta'lim, ilmiy yondashuvlar.

Ключевые слова: инклюзивность, инклюзивное общество, инклюзивные модели, лица с ограниченными возможностями, эмпирические исследования, инклюзивные образовательные модели, специальное образование, научные подходы.

Key words: inclusiveness, inclusive society, inclusive models, persons with disabilities, empirical research, inclusive educational models, special education, scientific approaches.

KIRISH

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy falsafa, ta'lim falsafasi kontekstida inklyuziv jamiyat konsepsiyasidan foydalanish muammosi ma'lum usullarda ishlab chiqilgan va izohlangan. Inklyuzivlik nazariyasini rivojlantirish uchun falsafiy metodologiyadan foydalanish turli pedagogik nazariyalar uchun amaliy jihatga ega. Dastlab, jamiyatda inklyuziya shakllanishining tarixiy va falsafiy jihatlarini irqiy, milliy, psixofizik va boshqa xususiyatlarda farq qiluvchi odamlar haqidagi jamoatchilik fikrini bag'rikenglik, tenglik va birlik yo'nalishida o'zgartirishga urinishlar Likopron, Aristotel, Aflotun, Suqrot va boshqa antik davr falsafasida kuzatilgan, lekin jamiyatda to'liq qabul qilinmagan, bu esa jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarning o'rnatilgan tamoyillarini o'zgartmasligi bilan bog'liq edi. Qadimgi Yunoniston va Rim sivilizatsiyalarida inson huquqlari haqidagi g'oyalarning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi: davlat tuzumi va siyosati, diniy qarashlar, faylasuflarning asarlari va fikrlari u yoki bu muammoga oid axloqiy, estetik, siyosiy qarashlarning shakllanishida o'z aksini topib, keyinchalik umuminsoniy dunyoqarash shakllangan [1].

Ijtimoiy falsafada inklyuzivlik g'oyalarining rivojlanishi munozaralarda yuzaga keladigan integratsiya va inklyuzivlik muammolarini tushunish uchun sotsiologik, pedagogik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy-falsafiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda inklyuziv jamiyatning falsafiy mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritishda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot fanlari doirasida olib borilgan ilmiy dissertatsiyalar, maqolalar, monografiyalar o'rganib chiqildi. Inklyuziv jamiyatning falsafiy masalalari, nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, jamiyatda inklyuziv jarayonlar, inklyuziv ta'lim rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy muammolari bilan bog'liq masalalar rossiyalik olimlardan O.A.Muzika, V.V.Popov [2], P.R.Egorov, G.F.Egorova, K.L.Valentinovna, Yu.A.Kolesnik, N.N.Mixaylovalar hamda o'zbekistonlik olimlardan N.M.Nazarova, T.S.Nabiyev, Sh.A.Dusmanov, D.S.Qaharova, B.Ismoilovlar [3] tomonidan tadqiq etilgan. Jamlangan ma'lumotlar asosida ushbu maqolani ilmiy asoslashda muhim manba sifatida foydalanildi. Tadqiqotlarning empirik natijalari va metodologiyasi inklyuziv jamiyatning mazmunini o'rganish, tushunish va talqin qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi zamonaviy falsafiy, pedagogik va sotsiologik manbalar hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda inklyuziv ta'lim kontsepsiyalarining asosini ekzistensializm, pragmatizm, postmodernizm, fenomenologiyaning falsafiy g'oyalari tashkil etadi, ular aniq fanlar - psixologiya, pedagogika, sotsiologiya nazariyasi va metodologiyasida interfaol yondashishga yo'naltirilgan bo'lib, ular o'z rivojlanishida shaxsiy, ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik kabi yo'nalishlarni yuzaga keltirgan.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda inklyuziv jamiyatning kundalik makonida sodir bo'layotgan sotsial-integrativ jarayonlarni kompleks ko'rib chiqish va o'rganish bo'yicha turli tushunchalar va yondashuvlar institutsionallashtirilgan va tizimlashtirilgan. Ammo, bu yo'nalishdagi ishlarining rivojiga inklyuziv jamiyatni o'rganishning metodologik asoslari va tamoyillarining etarli darajada shakllanmaganligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan, inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy tadqiq etish va bu yo'nalishda muammolar majmuasini adekvat ifodalash, tushunish, talqin qilish va tushunish uchun uslubiy va nazariy asos bo'lib xizmat qiladigan to'g'ri konseptual va strategik rivojlanish konsepsiyasini zamonaviy falsafiy tendentsiyalar kontekstida dolzarb masala sifatida o'rganilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogikada inklyuziv ta'lim yondashuvlari va modellari xilma-xilligiga qaramay, inklyuzivlikni ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida mohiyati va o'ziga xosligi hali ham etarlicha o'rganilmagan va tizimli shaklda taqdim etilmagan. Ushbu muammoni, birinchidan, fenomenologik, konstruktivistik, pragmatik, instrumental, tizimli va sinergetik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari va substantiv asoslarini ochib berish kontekstida, ikkinchidan, falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya bilimlari asoslarining fanlararo sintezini hisobga olgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Inklyuziv ta'limning xorijiy kontsepsiyalari ekzistensializm, fenomenologiya, konstruktivizm, pragmatizm, instrumentalizm kabi sohalarining klassik falsafiy g'oyalariga asoslanadi. Falsafiy fundamental sohalar asosida shaxsiy, ijtimoiy-fenomenologik, ijtimoiy-madaniy tushunchalar ishlab chiqiladi, ular birgalikda ijtimoiy va gumanitar fanlar metodologiyasini tashkil etuvchi integrativ metodologik asosni ifodalaydi. Falsafiy yondashuvlar orasida konstruktivistik yondashuv tobora ommalashib bormoqda, uning uslubiy tuzilmalari ta'lim falsafasida va umuman ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda yangi gnoseologik paradigmaning shakllanishi haqida tushinishga va fikr yuritishga imkon beradi.

Xorijiy manbalar, nodavlat tashkilotlarning ma'lumotlari (T.Skoraya, A.Ruchin, A.Papko ma'ruzalari)da inklyuziv jamiyatning strategik shakllanishi, amaliy jihatdan o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchilar, yirik biznesning inklyuziv bo'limlari va xayriya jamg'armalari vakillari zaif qatlamlar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish tendentsiyasiga ishora qilmoqdalar, ular bir necha yil oldin hatto ikkilamchi ishchi kuchi segmentlarida (nogironlar, keksa nafaqaxo'rlar) sezilarli darajada emasligini bilish mumkin. Inklyuzivlik va insonparvarlik nafaqat ma'naviy qadriyatlar, balki davlat, tadbirkorlar tomonidan talab qilinadigan muayyan muammolarni hal qilish vositasi sifatida ham ifodalanadi. Inklyuzivlikning falsafiy muammolarini o'rganish axloqiy masalalarni - inson xatti-harakatlarining me'yorlari va qoidalarini, birgalikda ta'lim sharoitida odamlarning bir-biriga nisbatan mas'uliyatini, gumanistik axloq ta'sirida inklyuziv ta'lim muhiti axloqini shakllantirish muammosini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Keyingi yillarda pedagogik deontologiya muammolari - burch, axloqiy talab va me'yorlar o'qituvchining, shu jumladan, inklyuziv muhitda ishlaydigan o'qituvchining kasbiy

FALSAFA

faoliyatidagi ijtimoiy zaruriyatning namoyon bo'lish shakli sifatidagi axloqqa xosligi haqidagi yondashuvlar (N.M.Nazarova, I.A.Filatova, I.M.Yakovleva) tadqiqotchilar qiziqishini uyg'otmoqda.

Xorijiy tajribalardan ko'rish mumkinki, ijtimoiy ish nazariyasi inklyuziv jamiyat kontseptsiasining kontseptual asoslarini belgilab beradi [4]. Ijtimoiy ishning asosiy g'oyalari va tamoyillaridan foydalangan holda ingliz olimi Professor Roger Slee ijtimoiy pragmatik xulq-atvor modelini yaratdi. Roger Slee tomonidan ishlab chiqilgan modelning asosiy tushunchalari "tartibsizlik" tushunchasi bo'lib, unda nogironlarning barcha salbiy fiziologik, ijtimoiy-psixologik va ruhiy xususiyatlari mazmunli aks ettirilgan va "qobiliyatsizlik" tushunchasi – ma'lum bir ijtimoiy qurilishni ifodalovchi, nogironning an'anaviy hayot va jamiyatdagi odamlarning butun faoliyatiga munosabatini ko'rsatadi. Buning asosiy omili – an'anaviy jamiyat institutlari tomonidan doimiy ravishda kamsituvchi bosimni boshdan kechirayotgan maxsus ijtimoiy guruhning madaniyatidir.

Inklyuziv jamiyatni o'rganishda Yevropa mamlakatlarida shu jumladan ingliz olimlari C.Dudevard, A.Knoppers [5], R.E. Rudolf [6], nogironligi bo'lgan shaxslarning an'anaviy qadriyatlari va qadriyatlari o'zaro bog'liqligining qarama-qarshi tomonlari mavjudligiga e'tibor qaratdi. Ushbu olimlar nogironlarni jamiyatning ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlab, nogironligi bo'lgan shaxsning kundalik inklyuziv muhitda ijtimoiy muvofiqlashtirilgan "yashash" doirasida bir qator o'ziga xos ijtimoiy yo'naltirilgan va kasbiy qadriyatlarini qisman yo'qotishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni ta'kidlaydilar. Inklyuziv jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarning kundalik inklyuziv voqeligini o'rganishda ekzistensial va ijtimoiy-konstruktiv yondashuvlardan foydalanishning uslubiy ahamiyatini aks ettiruvchi amaliy va nazariy jihatdan ahamiyatli konsepsiyani taqdim etgan finlandiyalik olim Xelsinki universiteti dotsenti Mirja Xartimo [7] (falsafa, san'at va jamiyat bo'yicha doktorlik dasturi bo'yicha ilmiy rahbar) kontseptsiasini ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Mirja Xartimo ijtimoiy guruhdagi ijtimoiy muvofiqlashtirish sharoitida ijtimoiy institutlardan kelib chiqadigan va an'anaviy jamiyatning ta'lim stereotiplari bilan bog'liq bo'lgan muayyan kamsitish harakatlariga muntazam duchor bo'ladigan nogironlarning alohida ijtimoiy guruhi madaniyatini tahlil qilishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlagan.

Pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar va huquqshunoslar tomonidan inklyuziv jamiyat, inklyuziv ta'lim to'g'risida ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish asnosida imkoniyati cheklangan shaxslarning inklyuziv ta'lim orqali sog'lom jamiyat muhitiga moslashishi uchun sharoitlarni yaratish hamda maxsus ta'lim, sub'ektiv huquq sifatida qaraladi.

N.M.Nazarova inklyuziv ta'limning maqsadi nogironligi mavjud ta'lim oluvchilarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida ijtimoiy hayot va fuqarolik jamiyati qonunlariga moslashtirishdan iboratdir, degan qarashni ilgari suradi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda huquqshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, malakali pedagoglar o'zaro hamkorlikda tizimli faoliyat yuritishlari lozim.

Dusmanov Sherzod Abduvalievich: "Ijtimoiy ishda milliy va etnik hududiy o'ziga xosliklarni hisobga olish orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish", deb ta'kidlaydi. D.S.Qaharova inklyuziv ta'limni davlat siyosati darajasidagi masalalardan biri deb ataydi. Ch.B.Abdurahmonovanning fikriga ko'ra, inklyuziya – bu ta'lim olishni tashkil qilishning shunday asosiki, bunda hamma o'quvchilar tengdoshlari bilan birgalikda o'zlarining yashash joylariga taalluqli bo'lgan maktablarda ta'lim oladilar.

Soha mutaxassislarining fikrlaridan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, inklyuziv ta'lim nogironlik holati umumta'lim maktablarida inklyuziv tartibda ta'lim olishga to'g'ri keladigan o'quvchi yoshlarni ta'lim olishga qamrab olishga yo'naltirilgan ta'limiy harakatdir. Inklyuziv jamiyat inklyuziv ta'lim tizimni qamrab oladi. Shu ma'noda, inklyuziv ta'lim tushunchasiga quyidagi inklyuziv modellar – sotsial model, huquqiy model, pedagogik model yuzaga kelgan. Sotsial model - jismoniy nuqsoni bor o'quvchilarni ta'lim sohasi orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ijtimoiy jihatdan yondashishi bilan xarakterlanadi. Huquqiy model – imkoniyati cheklangan shaxslarning va barcha fuqarolarning tengligi, ijtimoiy adolat, ijtimoiy huquq va manfaatlarini ifoda etadi. Pedagogik model – inklyuziv ta'limni tashkiliy shart-sharoitlari, ma'naviy va ilmiy salohiyatiga e'tibor qaratiladi. Inklyuziv jamiyatning istiqboli inklyuziv ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muhitni shakllantirish zarurati mavjud. Bu esa o'z navbatida, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari, boshqaruv organlari oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, inklyuziv jamiyat g'oyasi tor institutsional kontekstlarning chegaralarini (ta'lim, bandlik, ijtimoiy xizmatlar) engib chiqadi va jamoatchilikda

asosiy mavzulardan biriga aylanmoqda. Tadqiqot sohasida bu ilmiy faktologik savollarni berish va hal qilish imkonini beruvchi metodologiyani ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Ushbu maqolani yoritishda inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berish va bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tahlil qilish asosida xulosa takliflar ishlab chiqishni maqsad qildik.

Moskva shahrida 2025-yil 28-mart kuni bo'lib o'tgan XV Grushin konferensiyasi [8] doirasida "Inklyuziv jamiyat: insonga yo'naltirilganlik muammolari va istiqbollari" va "Inklyuziv jamiyatda inson kapitali" mavzularida mutaxassislar tomonidan ish bilan ta'minlash, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida vakillik va ijtimoiy siyosat masalalariga alohida e'tibor qaratib, Rossiya jamiyatiga qo'shilishning asosiy to'siqlari va omillarini muhokama qilindi. Konferensiyada "Inklyuziv jamiyat: insonparvarlik muammolari va istiqbollari" bo'limining moderatori Yelena Yarskaya-Smirnova, "Inklyuziv jamiyatda inson kapitali" bo'limining moderatori Mariya Kozlova hamda seksiyalarda etakchi tadqiqotchilar va amaliyotchilar, bir qator xalqaro tashkilotlar vakillari, Rossiya Fanlar akademiyasining Sotsiologiya instituti va boshqa tadqiqot markazlari mutaxassislari Rossiyada inklyuziv madaniyat qanday shakllanayotgani, institutsional kontekstda inklyuziv amaliyotning rivojlanishiga qanday qadriyatlar va me'yorlar ta'sir ko'rsatishi va ularning insonga asoslanganlik tamoyillari bilan bog'liqligi haqida muhokama qilindi. "Inklyuziv jamiyat: insonparvarlik muammolari va istiqbollari" bo'limi Tatyana Skoraya ("Donorlar forumi" AGO)ning ma'ruzasida inklyuziyaning aniqlashning zamonaviy yondashuvlari va eng muvaffaqiyatli inklyuziv amaliyotlar ro'yxati e'lon qilindi. Igor Novikov Rossiyaning raqamli kompaniyalarida insonga yo'naltirilganlik haqidagi ma'ruzasida zamonaviy rus raqamli kompaniyalarida nogiron xodimlarning inklyuzivlik kontseptsiyasini idrok etishi bo'yicha tadqiqot natijalarini taqdim etdi. Konstantin Obuxov, Viktoriya Antonova, Daria Prisyazhnyuk va Elena Yarskaya-Smirnova (HSE Moskva davlat ijtimoiy va ijtimoiy tadqiqotlar instituti) korporativ xilma-xillik va inklyuziya (DIP) siyosati bo'yicha HR menejerlari o'rtasida o'tkazilgan butun Rossiya so'rovi natijalari haqida ma'lumot berdi. Milliy tadqiqot universiteti Oliy Iqtisodiyot maktabi (Sankt-Peterburg) Yoshlar tadqiqotlari markazidan Elena Omelchenko, Irina Lisovskaya va Evgeniya Kuziner global akademik hamjamiyatga izolyatsiya va inklyuziyaning bartaraf etish bo'yicha strategiya va amaliyotlarni o'rganib chiqdi. Inklyuziv jamiyatni shakllantirishning asosini tashkil etuvchi imkonoyati cheklangan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabatning mustahkamlanishi bunday tadqiqotlarning muhim natijasi sifatida qayd etildi.

Inklyuziv jamiyatning falsafiy metodologik jihatdan tadqiq etish orqali tizimli yondashuv asosida jamiyatning inklyuziv rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladigan tadqiqotlarni o'ziga xos talqin qilishni anglatadi. Ijtimoiy-falsafiy g'oya sifatida inklyuziv jamiyat G'arb mamlakatlarida siyosiy munozaralar va boshqa, o'xshashlarni qabul qilish uchun kurash, individual farqlarga asoslangan kamsitishlarga qarshi kurash jarayonida davlat siyosatining printsipligiga aylandi. Davlat siyosatining tamoyiliga aylangan bu g'oya muayyan o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Bu o'zgarishlar ta'lim yoki sog'liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etilishi nogironlarning ta'lim olish huquqini ta'minlash zaruratiga olib keldi, bu huquqlarning tengligi va ta'lim jarayoniga qo'shilish imkoniyatini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu masalalarni ijtimoiy falsafiy tadqiq etishda jamiyatni va uning quyi tizimlarini (shu jumladan, ta'lim muassasalarining quyi tizimini) qo'llab-quvvatlaydigan va rivojlantiradigan oddiy odamlar va nogironlarning birgalikdagi mavjudligi shakli sifatida ko'rib chiqiladi hamda jamiyatning barcha a'zolari erkin tanlash huquqiga ega ekanligi, shuningdek, alohida ehtiyojli shaxsning barcha ijtimoiy jarayonlarda, ta'limning barcha darajalarida, dam olish jarayonida, ishda, turli xil ijtimoiy rollar va funktsiyalarni amalga oshirishda faol ishtiroki va darajasi, shakllari, usullarini tanlash erkinligini ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Bu huquq dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlarida qonunchilik bilan mustahkamlangan. Integratsiya va inklyuziyaning asosiy ijtimoiy-falsafiy tamoyili tanlash erkinligi kategoriyasi hisoblanadi. Bu davlatning ta'lim to'g'risidagi qonunida mustahkamlangan ta'lim sohasidagi davlat ijtimoiy siyosatining asosiy tamoyilida amalga oshiriladi. Jamiyatimizda barcha fuqarolar, jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, teng huquqlilik g'oyasi mustahkamlanib bormoqda. Hozirgi kunda davlat ijtimoiy siyosatining o'zagini rehabilitatsiya yo'nalishi tashkil etmoqda. Bunda shaxsning psixofiziologik, kasbiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirish va mustahkamlash, ijtimoiy ish texnologiyalarini rivojlantirish asosi hisoblanadi. Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari inklyuzivlik tamoyillarini ilgari surish va to'siqlarsiz muhit yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar tufayli 2018-yilda mamlakatimizda chinakam inklyuziv jamiyat qurish jarayonlarini faollashtirishga yo'naltirilgan 35 ta nodavlat notijorat tashkilotlarni birlashtirgan O'zbekiston nogironlar uyushmasi tashkil etildi. Uyushma mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

FALSAFA

Assotsiatsiya jamoasi tomonidan 2018-2021-yillarda nogironlar huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida 170 dan ortiq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, tegishli davlat organlariga taqdim etilgan. Mamlakatimiz tomonidan xalqaro hujjatlarning ratifikatsiya qilinishi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay jismoniy muhit yaratish bo'yicha muayyan talablarni belgilash va majburiyatlarni bajarishga shuningdek, inklyuziv jamiyat rivojiga xizmat qilmoqda [9].

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, inklyuziv jamiyatni tadqiq etish tadqiqotchilar, ta'lim muassasalari, biznes va davlat siyosati o'rtasida faol hamkorlikni talab qiladigan muammo bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat, inklyuziv jamiyat amaliyotiga ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta'sir qiladi va ularni tarqatish barcha darajalarda har tomonlama qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Bugungi kunda inklyuziv jamiyatni shakllantirish va o'rganish sohasidagi asosiy yo'nalishlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Волков Н.А. Человек и его права в концепциях античных представителей философской и правовой мысли // Ист. и соц.-образоват. мысль. – 2015. – Т. №6, Ч.2. – С. 167-172.
2. V. Popov O, Muzika, O. Kholina, Lecture Notes in Networks and Systems, 365, 27-39 (2023). V. Popov, Perspectives of Science and Education, 61 (1), 306-320 (2023). V. Popov O, Muzika, O. Kholina, E3S Web of Conferences, 420, 06001 (2023)
3. Бекжон Исмоилов. Жамият ва инновациялар. -Т: 2022. 2(12/S):55-63. <https://insciense.uz>
4. R. Slee, International Studies in Sociology of Education 18(2), 99-116 (2016)
5. C.Doodewaard, A.Knoppers, Front. Sports Act. Living 4, 82–94 (2022)
6. R.E. Rudolph, Philosophical Studies 177(1), 197-217 (2018).
7. M. Hartimo, On the Origins of Scientific Objectivity. Husserl's Phenomenology of Intersubjectivity: Historical Interpretations and Contemporary Applications (Routledge, New York, 2019).
8. XV Xalqaro Grushin konferensiyasi to'plami. – Moskva: 2025.
9. Инклюзивное общество: социальная защита и равенство для всех. «Правда востока». 18.06.2023.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 29.12.2019.
11. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Тошкент: "O'zbekiston", 2022. – 440 бет.
12. Russian Science Foundation № 24-28-00320, <https://rscf.ru/project/24-28-00320/> in Rostov State University of Economics in the framework of the research project "Existential bases of individual being of a person with disabilities in the inclusive society" (Project Leader: Professor O.A. Muzika). 2024.